O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Rektor ____________ Sh.Sirojiddinov
2023-yil “28”-avgust

# MUMTOZ MATN TILI
# FANINING SILLABUSI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 70230301 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O‘zbek tili) |

**Toshkent-2023**

| Fan/modul kodi | | Fan/modul turi<br>tanlov | | Ta'lim tili<br>o'zbek | | Ishlab chiqilgan o'quv yili<br>2023/2024 | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 1 | Mumtoz matn tili | 5 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 90 | 150 |
| | Jami: | 5 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 90 | 150 |

| Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar | |
|---|---|
| 1. | Adabniy manbalar bilan ishlash amaliyoti (302AMIA 1-2 10) |
| 2. | Matnshunoslik (302 M 3 5 08) |
| 3. | Matnshunoslik nazariyasi (302MN 1-2 9) |

## 1. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** – mumtoz matn tilining shakli, mazmuni, ichki tabiatini metodologik asosda o'rganish orqali magistrantlarga fanning fundamental masalalari yuzasidan nazariy bilim berish, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari doirasida talabalarda ilmiy tadqiqotga malakaviy ko'nikma hosil bo'lishiga sharoit yaratish va shu asosda o'z kasbini mukammal egallagan har tomonlama barkamol yosh avlodni tarbiyalashdan iborat.

**Fanning vazifasi** – magistrantlarda mumtoz adabiy merosimizning tushunchaviy apparati, mumtoz matn va zamonaviy adabiy tilni qiyosiy o'rganish asoslari, ilmiy ko'rsatkichlarni tuzish tamoyillari va keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'ladigan qarashlar tizimini yaratish kabi masalalarni kompleks tadqiq etishni o'z ichiga oladi.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR



**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

– mumtoz matn tili tushunchasining nazariy masalalari yuzasidan magistrantlarda analitik mushohada va muhim xulosalar chiqara olishni taminlaydigan ***tasavvurga ega bo'lishi (bilim)***;

– mavjud matnlarni tarixiylik nuqtayi nazaridan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish, mumtoz adabiy manbalarning tarixiy ildizlari va namunalarini matn tuzilishi va anglanishi masalalari bilan aloqadorlikda o'rgana olishi va ulardan ish ***ko'nikmalariga***;

– fan muammolarini diaxronik-sinxronik nuqtayi nazardan farqlash va ularning yechimiga jahon adabiyoti kontekstida qarash lozimligini uqtirish, egallangan bilim va malakani umumma'naviyatni rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish ***malakasiga ega bo'lishi lozim***.

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

- ma'ruzalar;
- amaliy mashg'ulotlar
- fan doirasida turli mavzular taqdimoti;
- individual va jamoaviy loyihalar.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan Folklor matnshunosligi muammolari fanidan 120 **soat 1** semestr *o'quv yuklamasini o'zlashtirgan*, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga 120 **soat 1** semestr **4 kredit beriladi.**

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi.**

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi va baholash mezonlari**

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

***Dastur tuzuvchilar uchun eslatma:*** *professor-o'qituvchi tomonidan fanning xususiyatidan kelib chiqib* ***baholash usullari*** *fan yoki modul doirasidagi talabaning*

*yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi* ***yozma, og'zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio va nazoratlar*** *kabi turlardan tarkib topgan* ***baholash mezonlari aks ettirilishi shart.***

**5 (a'lo) baho** -talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

**4 (yaxshi) baho** - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

**3 (qoniqarli) baho** - talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

**2 (qoniqarsiz) baho** - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

***Izoh:*** Nazorat turlari, shakllari va soniga keyingi semestrlar davomida kafedra yig'ilishi qarorlariga asosan o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

## TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha test shaklda o'tkaziladi.

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**



## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 1-SEMESTR

**1. Ma'ruza mashg'ulotlari**

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | **Mumtoz adabiy manbalarni o'rganishning nazariy asoslari** | Fan haqida ma'lumot, fanning maqsadi va vazifalari; i'joz maqomi, adab ilmlari va uning tasnifi | 2 |
| 2 | **Qur'onda so'z va uning maqomi** | Kalomulloh, mo'jiza, Qur'onda so'z ma'nosiga dalolat qiluvchi lafzlar, A'rof 25, Isro 16, Yosin 7, Niso 148, An'om 112, Qof 29, Qasas 51 | 2 |
| 3 | **Hadislarda so'z ta'rifi** | Til - so'zni yuzaga chiqarish vositasi, G'azzoliy til ofatlari haqida, so'z bilan bog'liq hadislar | 2 |
| 4 | **Mumtoz so'z ustalarining so'zga munosabati** | Javomi'ul kalim, al-mo'jazul mo'jiz, istiqomat, hikmat, Haydar Xorazmiy so'z haqida, Navoiy "Xamsa"si, so'z guhari, bashar vujudi, kun fayakun | 2 |
| 5 | **So'z fasohati, so'zchi mahorati va gapdagi balog'at** | Fasohat, mahorat, balog'at, go'zallik tabiati, chiroy, nutq go'zalligi, zavqi salim, fasohat va balog'at ta'rifi, "tanbeh"lar, bayt | 2 |
| 6 | **Ilohiy manbadagi zarbulmasallar va majoz o'rinlari** | Zarbulmasal tarixi, majoz, irsoli masal, "Kalila va Dimna", "Lisonut tayr", Gulxaniy, Qur'onda masal o'rinlari, hadislarda masallar | 2 |
| 7 | **"Javomi'ul kalim" an'analari** | Xorazmiy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Sayyid Qosimiy, | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | Navoiy g'azallarida "javomi'ul kalim" o'rinlari; tizimli o'rganish | |
| 8 | **"Al-mo''jazul mo''jiz" uslubi** | Saolibiy, "Al-i'joz val iyjoz" asari, hikmatlar, masallar, lo'nda gap, ixcham ifoda, mantiqiy muvofiqlik | 2 |
| 9 | **Mumtoz lug'at manbalari** | Tole' Imon Hiraviyning "Badoyi' ul-lug'at", "Abushqa" lug'atlari, Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma", Muhammad Rizoning "Muntaxab ut-tavorix", Mahdixonning "Sanglox", Fathali Kojarning "Lug'ati atrokiya" asarlari | 2 |
| 10 | **Nazm va nasr tili** | Nazm, qat'iy tizim va intizom, nazm – palaxmon toshi (Rumiy), nazm ta'rifi, Qudoma ibn Ja'far, nasr, epik janr, voqealar tizimi, so'zamollik | 2 |
| 11 | **Xos adiblik** | Adab malakasi, adiblik salohiyati, adab ilmlari, Qalqashandiy, "Sabhul a'sho", A.Rustamiy, ilhom ehtiyoji, burch majburiyati | 2 |
| 12 | **Mumtoz matnlarda qadim turkiy so'zlar** | Qo'lyozma va toshbosma nusxalar, ilmiy-tanqidiy va yig'ma matn, nashr turlari | 2 |
| 13 | **Mumtoz matn tilida gap qurilishi** | Mumtoz matn va so'zga munosabat. Ma'no talqinida so'zni tanish malakasi. So'zning lug'aviy va istilohiy ma'nolari. O'zlashma so'zlarning ko'chma ma'nolarini bilishning ahamiyati. Matnni anglashga kompleks yondashuv | 2 |
| 14 | **Mumtoz matn va bugungi adabiyot tili** | Mumtoz va zamonaviy adabiy matn, leksik qatlamlar nisbati, badiiylik mezoni, gap qurilishidagi farqlar, farqlanish omillari | 2 |
| 15 | **Mumtoz adabiyotni o'rganish muammolari** | Asliyat yozuvi, til malakasi, so'z va amal birligi, sog'lom maslak | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | | omillari, adabiy salohiyat, ixtisoslik asosi, mas'uliyat va majburiyatlar | |
| | | **Jami:** | **30s.** |
| | | | |

**2. Amaliy mashg'ulotlar**

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | **So'z haqidagi oyatlar tafsiri** | Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, shayx Alouddin Mansur tafsirlari | 2 |
| 2 | **Islomda so'zga munosabat** | So'z ilohiy ne'mat, Qur'onda va hadislarda so'z ma'nolari, va'da, omonot, sidq, rostlik | 2 |
| 3 | **So'z tushunchasi bilan bog'liq hadislar bayoni** | Hadislar oyat tafsiri sifatida, javomi'ul kalim, majoz turlari | 2 |
| 4 | **Til ofatlari haqida Abu Homid G'azzoliy qarashlari** | Tilning yigirma ofati, mahmadanalik, g'iybat, maqtanchoqlik, behuda so'z | 4 |
| 5 | **Mumtoz so'z ustalarining so'zga e'tibori masalasi** | So'z – hukm, so'z – jazo, so'z – najot, so'z – natija, so'z – saodat, so'z – halokat | 2 |
| 6 | **"Hayratul abror"da so'z ta'rifi** | Kavokibi jahontob, javohiri serob, so'zdagi ma'ni, so'z qolipi, uzr qo'lish | 4 |
| 7 | **Javomi'ul kalim ta'rifi** | Ilohiy matn tabiati, i'joz va iyjoz maqomi, fasohat va balog'at, muqtazoyi hol, hikmat | 4 |
| 8 | **"Devonul lug'otit turk"dagi adabiy parchalar** | Badiiy matnning shakl va mazmun xususiyatlari, turkiy so'zlar, arabiy so'zlar, lug'at izohi | 4 |
| 9 | **"Qutadg'u bilig" asarining til xususiyatlari** | "Qutadg'u bilig" va "Devonul lug'otit turk" tilining farqli va o'xshash jihatlari | 2 |
| 10 | **"Hibatul haqoyiq" hikmatlari** | "Hibatul haqoyiq"da odobi tasnif, baytlarning mavzuiy tasnifi, ilm manfaati, jaholat | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | zarari | |
| | | Jami: | 30s. |

3. Mustaqil ta'lim ishlari

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | **Mumtoz adabiy matnlarda i'joz maqomi** | Fikr va tasvir uyg'unligi, ojiz qoldiradigan ifodalar, mahorat, nozik nuktalar | 6 |
| 2 | **Qur'onda "so'z" ma'nosiga dalolat qiluvchi lafzlar** | Qur'onda "qavl" va "hadis" so'zlari ma'nosi, so'zga dalolat qiluvchi lafzlarning boshqa ma'nolarda kelishi | 6 |
| 3 | **Javomi'ul kalim va al-mo'jazul mo'jiz uslubi** | Shakliy lo'ndalik va ifodadagi ixchamlik, ko'p ma'no va kam so'z, tafakkur silsilasi | 6 |
| 4 | **G'azzoliy til ofatlari haqida** (G'azzoliyning "Til ofatlari" kitobi misolida) | Tilning ijtimoiy ahamiyati, tilning yigirmata ofati, g'iybat va maddohlik | 6 |
| 5 | **Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari matni** | Ilohiy manbada zarbulmasal, masallar mavzulari, ilmiy-tanqidiy matni, F.Is'hoqov tadqiqoti | 6 |
| 6 | **"Shayboniynoma" dostoni so'zligi** | Ishq, tolih, saodat, muqim, tamanno, qurbon, tavr, vifoq, ixroj, ittifoq, shar', davr | 6 |
| 7 | **Haydar Xorazmiy so'z haqida** | "Maxzanul asror", oqil va orifning farqi, so'z bila so'zni yopar, o'shul so'zda o'zini topar | 6 |
| 8 | **"Zavqi salim" tushunchasi** | Xotira tiniqligi, zakovat nuri, e'tiqod sog'lomligi, farosat o'tkirligi, nazarning chuqurligi | 6 |
| 9 | **Muhammad Rizobek Xoksorning "Muntaxabul lug'at" asari nashri** | Nashrga tayyorlovchilar muqaddimasi, qo'lyozmalar tavsifi, lug'at so'zligi tartibi, so'zlarga berilgan ma'nolar izohi | 6 |
| 10 | **"Ravoyihur rayhon" asari muqaddimasi tahlili** ("Sabotul ojizin"ning yangi sharhi) | Nazm, qat'iy tizim va intizom, nazm – palaxmon toshi (Rumiy), nazm ta'rifi, Qudoma ibn Ja'far, nasr, epik janr, voqealar tizimi, so'zamollik | 6 |
| 11 | **ToshDO'TAU qo'lyozmalar fondidagi bir devon tavsifi ( №866)** | Devonning ilmiy tavsifi, muqovadagi yozuvlar, sahifadagi | 6 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | | baytlar soni, tabdil, nasriy tarjima | |
| 12 | **Kirill alifbosidan eski o'zbek yozuviga o'girish** (Munis g'azallari) | Turkiy so'zlar imlosi, "arzi husn", eski o'zbek yozuvida turkiy ifoda imlosi | 6 |
| 13 | **Bayoz tabdili (ToshDO'TAU fond, №869)** | Bayoz ta'rifi, janr tasnifi, qo'lyozma xati, muallif va mavzuning tanlanish prinsipi, nasriy bayon, lug'at | 6 |
| 14 | **Eski o'zbek tili fonetikasi** | Eski o'zbek tilida unlilar tizimi , eski o'zbek tilida unlilar cho'ziqligi, undoshlar tizimi, tovushlar uyg'unligi | 6 |
| 15 | **Mumtoz matn sintaksisi** | Mumtoz matnda darak va undov gaplar ifodasi, turkiy ifodada arabiy va forsiy konstruksiya unsurlari | 6 |
| | | **Jami:** | **90 s** |

## 6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

### Asosiy adabiyotlar:


1. S.Ashirboyev, I.Azimov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. // O'quv qo'llanma, T.: 2012, 97 b.
2. Q.Sodiqov. Eski o'zbek yozma adabiy tili. T.: Akademnashr, 2021. –590 b.


### Qo'shimcha adabiyotlar:


1. A. Rustamov So'z xususida so'z. –T.: Yosh gvardiya, 1987. –156 b.
2. Adabiyotshunoslik lug'ati (D.Quronov va boshqa.). –T.: Akademnashr, 2010. –398 b.
3. A. Rustamiy Adiblar odobidan adablar. –T.: Ma'naviyat, 2003. –110 b.
4. B.Hasanov Alisher Navoiyning "Sab'at abhur" lug'ati. – T.: Fan. 1981. – 102 b.
5. V. Rahmonov. Mumtoz so'z sehri. T.: O`zbekiston, 2015, 440 b.
6. M. Hakimov. Sharq manbashunosligi lug'ati. – T.: Davrpress.NMU, 2013. – 496 b.
7. Navoiy asarlari lug'ati (tuzuvchilar: P. Shamsiev, S.Ibrohimov). –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. –782 b.
8. "Ravoyihur rayhon" /"Sabotul ojizin"sharhi, shorih R.Zohid. T.: "SHARQ", 2021, 478 b.

9. E.V. Sevortyan Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazыkov. "Nauka", M.:1974, S.136-137.
10. Qur'oni azim muxtasar tafsiri. // Mufassir Shayx Alouddin Mansur. T.: Sharq, 2019, 990 b.
11. H.Jamolxonov, Q.Sapaev. Imlo muammolari //o'quv qo'llanma,T.: 2007, 191 b.)

**Axborot manbalari**

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.ziyouz.com kutubxonasi

**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot**

| | |
|---|---|
| **Muallif:** | R. Zohidov ______________ *(imzo)*<br>"Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasi mudiri, f.f.d., dotsent. |
| **E-mail:** | |
| **Tashkilot:** | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti |
| **Taqrizchilar:** | S.Ashirboyev ______________<br>*(imzo)*<br>ToshDO'TAU, Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori;<br>A.O'razboyev ______________<br>*(imzo)*<br>UrDU, "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori |

Mazkur sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil ____-avgustdagi _____-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasining 2023-yil ____-avgustdagi ___-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i** **V.Nazarov**
**Fakultet dekani** **B.Abdushukurov**
**Kafedra mudiri** **R.Zohidov**